

**TUMAN (SHAHAR) ICHKI ISHLAR ORGANLARI BO‘LINMALARI
FAOLIYATINING TASHKILIY HUQUQIY ASOSLARI.**

Qurbonov Xosilbek Almal o‘g‘li

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV AKADEMIYASI KURSANTI

Kalit so‘zlar: *ichki ishlar organlari, tuman (shahar) bo‘linmalari, tashkiliy-huquqiy asoslar, jamoat xavfsizligi, boshqaruv tizimi, qonun ustuvorligi.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tuman (shahar) ichki ishlar organlari bo‘linmalarining faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari chuqur tahlil etilgan. Unda ichki ishlar tizimining mahalliy bo‘g‘inlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularning amaliy qo‘llanilishi, hamda xizmat vazifalarini bajarish jarayonida huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, tuman va shahar darajasidagi ichki ishlar organlarining tuzilmasi, ularning funksional vazifalari, boshqaruv tizimi hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Maqolada tashkilot faoliyatini samarali yuritish uchun kadrlar tayyorlash, xizmat intizomini mustahkamlash, zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish, hamda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni rivojlantirish muhim omil sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, muallif ichki ishlar organlari faoliyatida qonun ustuvorligi, shaffoflik va fuqarolarga xizmat ko‘rsatish tamoyillarining amalda qo‘llanilishi masalasiga alohida e‘tibor qaratgan. Tadqiqot natijalari asosida ichki ishlar tizimini yanada takomillashtirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va jamoatchilik ishonchini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu maqola tuman (shahar) darajasidagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tahlil etishda, shuningdek, davlat boshqaruvi sohasida ilmiy tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Ключевые слова: *Органы внутренних дел, работа с обращениями, информационные технологии, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), электронная система обращений, цифровизация, безопасность, обработка данных, эффективность, государственные органы, граждане, информационная безопасность, база данных, интеграция, система управления.*

Аннотация: *В данной статье подробно рассматриваются организационно-правовые основы деятельности районных (городских) подразделений органов внутренних дел. Автор анализирует нормативно-правовые акты, регулирующие деятельность местных структур МВД, особенности их практического применения, а также пути совершенствования правовых механизмов в процессе выполнения служебных обязанностей. Особое внимание уделено структуре и функциям районных и городских отделов внутренних дел, их роли в обеспечении общественной безопасности и правопорядка. В статье также освещаются вопросы подготовки кадров, укрепления служебной дисциплины, внедрения современных информационных технологий и развития сотрудничества с органами самоуправления. Автор*

подчеркивает значение принципов верховенства закона, прозрачности и ориентации на потребности граждан при организации деятельности органов внутренних дел. По результатам исследования предложены меры по повышению эффективности работы, сокращению бюрократических процедур и укреплению доверия общества к правоохранительной системе. Материал статьи может быть полезен исследователям, специалистам в области государственного управления и практикам правоохранительных органов.

Keywords: *internal affairs bodies, district (city) divisions, organizational and legal framework, public safety, management system, rule of law.*

Annotation: *This article provides a comprehensive analysis of the organizational and legal foundations of district (city) internal affairs divisions. It examines the regulatory and legal framework governing the activities of local law enforcement bodies, the practical implementation of these norms, and the directions for improving legal and administrative mechanisms in their daily operations. The study focuses on the structure, functions, and management system of district and city police departments, as well as their essential role in ensuring public safety and law enforcement. The article also highlights the importance of professional training, strengthening service discipline, implementing modern information technologies, and enhancing cooperation with local self-government institutions. The author emphasizes the principles of the rule of law, transparency, and citizen-oriented service delivery within the internal affairs system. Based on the research findings, recommendations are proposed to increase institutional efficiency, reduce bureaucratic barriers, and strengthen public trust in law enforcement. This article serves as a valuable resource for researchers, policymakers, and professionals engaged in public administration and legal reform.*

KIRISH

Bugungi globallashuv, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va raqamli transformatsiya jarayonlarida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, xususan, ichki ishlar organlari faoliyatini samarali tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir davlatning siyosiy barqarorligi, jamoat xavfsizligi va fuqarolar osoyishtaligi avvalo huquqni muhofaza qiluvchi organlarning puxta tashkil etilgan, qonuniy asosda faoliyat yuritayotgan tizimiga bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan, tuman va shahar ichki ishlar bo'linmalari – davlat ichki ishlar tizimining eng yaqin, xalq bilan bevosita muloqotda bo'ladigan bo'g'ini hisoblanadi. Ularning tashkiliy-huquqiy asoslarini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish zamonaviy huquqshunoslik va boshqaruv nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biridir. Tuman (shahar) ichki ishlar organlari jamiyatda huquqiy tartibotni saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishda beqiyos o'rin tutadi. Ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi Qonun, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga, har bir tuman

5-Noyabr, 2025-yil

yoki shahar miqyosida bu organlarning faoliyati o‘ziga xos hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular mahalliy sharoitdan kelib chiqib turlicha tashkiliy yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, ushbu bo‘linmalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil etish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ichki ishlar organlari faoliyatini isloh qilish, ularning ochiqqligini va shaffofligini ta‘minlash, aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” tamoyili asosida ichki ishlar organlari tizimida boshqaruvning yangi uslublari joriy qilindi, profilaktika inspektorlari faoliyati kuchaytirildi, mahallalar bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlari takomillashtirildi. Bu esa tuman (shahar) bo‘linmalari zimmasiga yanada mas‘uliyatli vazifalarni yuklab, ularning tashkiliy tuzilmasini qayta ko‘rib chiqishni, zamonaviy boshqaruv standartlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Shu sababli, ichki ishlar organlarining joylardagi bo‘g‘inlari faoliyatini huquqiy va tashkiliy jihatdan tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala bo‘lib qolmoqda. Tuman (shahar) ichki ishlar organlarining samaradorligi, avvalo, ularning tashkiliy tuzilmasi, kadrlar salohiyati, boshqaruv madaniyati va xizmat intizomining darajasi bilan belgilanadi. Bunda inson omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, huquqiy savodxonligi, axloqiy fazilatlar va fuqarolarga nisbatan adolatli munosabati jamiyatda ichki ishlar organlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda mavjud muammolardan biri – ayrim hollarda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining sustligi, xizmat intizomining yetarli darajada ta‘minlanmagani, boshqaruvda eskicha yondashuvlarning saqlanib qolganidir. Bunday holatlar tizimning samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, tuman (shahar) bo‘linmalari faoliyatini huquqiy asoslar bilan bir qatorda tashkiliy jihatdan ham takomillashtirish zarurati tug‘iladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, tuman va shahar darajasidagi ichki ishlar organlarining huquqiy maqomi, ularning vakolatlari, o‘zaro hamkorlik mexanizmlari va javobgarlik tizimi ko‘p hollarda yagona yondashuv asosida emas, balki hududiy sharoitlardan kelib chiqib shakllanmoqda. Shu bois, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, yagona tashkiliy model asosida boshqarish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Bundan tashqari, jamoat xavfsizligini ta‘minlashda zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi, elektron boshqaruv tizimlari, raqamli arxivlar va onlayn murojaat platformalarining tatbiq etilishi ham tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatiga yangi bosqich sifatida kirib kelmoqda.

ASOSIY QISM

Tuman (shahar) ichki ishlar organlari ichki ishlar tizimining eng quyi, lekin bevosita aholiga eng yaqin bo‘g‘ini hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi hududda jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda huquqbuzarliklarning oldini olishdan iboratdir. Shu boisdan ularning faoliyati samaradorligi ichki ishlar organlari tizimining umumiy natijadorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

1. Tashkiliy-huquqiy maqomi

5-Noyabr, 2025-yil

Tuman (shahar) ichki ishlar bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining hududiy bo‘g‘inlari hisoblanadi. Ular o‘z faoliyatini “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Ichki ishlar vazirligi buyruqlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiradi. Mazkur bo‘limlar mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda ishlaydi, biroq ularning faoliyati markazlashgan boshqaruv tamoyiliga asoslanadi. Ichki ishlar bo‘limining tuzilmasi odatda quyidagi bo‘linmalardan iborat bo‘ladi: jamoat tartibini saqlash xizmati, tezkor-qidiruv bo‘limi, tergov va surishtiruv bo‘limi, yo‘l harakati xavfsizligi guruhi, profilaktika inspektorlari xizmati, pasport va ro‘yxatga olish bo‘limi hamda boshqa yordamchi tuzilmalar. Har bir bo‘lim o‘z yo‘nalishidagi xizmat vazifalarini bajaradi va bo‘lim boshlig‘iga bo‘ysunadi.

2. Faoliyatning asosiy yo‘nalishlari

Tuman (shahar) ichki ishlar organlari quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi:

- hududda jamoat xavfsizligini ta‘minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish;
- jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatlarni ochish va tergov qilish;
- yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, transport hodisalarining oldini olish;
- profilaktika ishlarini olib borish, xususan, voyaga yetmaganlar, muqaddam sudlangan shaxslar, notinch oilalar bilan ishlash;
- fuqarolarning pasport tizimi bilan bog‘liq hujjatlarini rasmiylashtirish va ro‘yxatga olish;
- fuqarolar bilan bevosita muloqot qilish, ularning murojaatlarini o‘rganish va hal etish.

3. Hamkorlik va jamoatchilik nazorati

Ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirishda jamoatchilik bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Mahalla fuqarolar yig‘inlari, yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar qo‘mitasi va boshqa fuqarolik institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar jinoyatchilikning oldini olishda sezilarli natijalar bermiqda.

Bundan tashqari, “Xavfsiz hudud”, “Xavfsiz mahalla” dasturlari doirasida zamonaviy texnologiyalar — videokuzatuv tizimlari, raqamli monitoring vositalarining joriy etilishi ham tuman (shahar) ichki ishlar organlarining ish samaradorligini oshirmiqda.

4. Faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari

So‘nggi yillarda ichki ishlar organlarini isloh qilish jarayonida kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, xizmatni insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmiqda. Tuman (shahar) darajasida esa:

- profilaktika inspektorlarining vakolatlarini kengaytirish;
- axborot texnologiyalarini joriy etish;
- fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish;
- ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqqligini ta‘minlash kabi yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi.

XULOSA

Tuman va shahar ichki ishlar organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya

5-Noyabr, 2025-yil

qilish hamda jamoat tartibini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ichki ishlar tizimining tayanch bo‘g‘ini sifatida davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikning kafolati hisoblanadi. Ushbu organlarning faoliyati qonuniylik, oshkoralik, mas’uliyat va fuqarolarga xizmat ko‘rsatish tamoyillariga tayanadi. Hozirgi davrda tuman va shahar ichki ishlar bo‘linmalarining samarali ishlashi ularning tashkiliy tuzilmasi, huquqiy asoslari, xodimlarning malakasi va jamoatchilik bilan o‘rnatilgan hamkorlik darajasiga bog‘liqdir. Shu bois ichki ishlar organlarida xizmat madaniyatini yuksaltirish, raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish, profilaktika va fuqarolarning huquqiy ongi bilan bog‘liq ishlarni kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov O., & Usmonov, M. (2022). Raqamli transformatsiya va davlat boshqaruvi. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
2. Sultonov A. (2020). “Ichki ishlar organlarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish”. Huquqiy bilimlar jurnali, 3(12), 45-53.
3. Tursunov E. (2021). “Murojaatlar bilan ishlash jarayonida sun’iy intellektning roli”. Axborot texnologiyalari va jamiyat, 2(8), 29-37.

Science
Publication